

The Importance of Assessing and Monitoring Children's Speech Development in Preschool Educational Institutions

Jabborova Marifat Qodiraliyevna

Fergana State University

Associate Professor of the Department of Preschool Education, PhD

Suvonova Qizlarbas To'ra qizi

Preschool Education program

3rd-year student, Group 23.32

Abstract. This article comprehensively covers the scientific and theoretical foundations, methodological approaches and practical effectiveness of assessing and monitoring the speech of preschool children. The study analyzes the criteria for assessing speech development structurally and functionally. The article offers scientific and practical recommendations for effective management of speech development in the preschool education system.

Keywords: speech development, monitoring, structural assessment, functional assessment, speech therapy correction, dysarthria, intensive, multimedia technologies, preschool education.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini baholash va monitoring
o'tkazishning ahamiyati**

Jabborova Marifat Qodiraliyevna

Farg'ona davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, (PhD)

Suvonova Qizlarbas To'ra qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

23.32-guruh 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini baholash va monitoring qilishning ilmiy-nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari hamda amaliy samaradorligi kompleks tarzda yoritiladi. Tadqiqotda nutq rivojini strukturaviy va funksional jihatdan baholash mezonlari, tahlil qilinadi. Maqola maktabgacha ta'lim tizimida nutqiy rivojlanishni samarali boshqarish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: nutq rivoji, monitoring, strukturaviy baholash, funksional baholash, logopedik korreksiya, dizartriya, intensiv, multimedia texnologiyalari, maktabgacha ta'lim.

Аннотация. В данной статье всесторонне рассматриваются научные и теоретические основы, методологические подходы и практическая эффективность оценки и мониторинга речи детей дошкольного возраста. В исследовании анализируются критерии структурно-функциональной оценки развития речи. В статье предлагаются научные и практические рекомендации по эффективному управлению развитием речи в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: развитие речи, мониторинг, структурная оценка, функциональная оценка, коррекция речи, дизартрия, интенсивная терапия, мультимедийные технологии, дошкольное образование.

Kirish

Maktabgacha yosh davri nutq rivojlanishining eng intensiv bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning fonetik, leksik va grammatik nutqi shakllanadi, bog'lanishli nutq va kommunikativ kompetensiya rivojlanadi. Nutq tafakkur bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning rivojlanishi bolaning intellektual va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim tizimida nutqiy rivojlanishni faqat o'qitish orqali emas, balki ilmiy asoslangan baholash va monitoring orqali boshqarish muhim ahamiyat kasb

etmoqda. Nutqdagi kamchiliklarni erta aniqlash keyingi o‘qish va yozish ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nutq rivojini baholash — bolaning yoshiga, psixologik va ijtimoiy rivojlanish darajasiga mos ravishda uning og‘zaki va yozma nutq, tovush talaffuzi, lug‘at boyligi hamda bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini tizimli o‘rganish jarayonidir. Baholash ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi:

1. Strukturaviy (lingvistik) baholash. Strukturaviy baholash nutqning ichki nutq tizimini aniqlashga qaratiladi. Bunda:

- tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va fonematik eshitish;
- lug‘at hajmi va semantik aniqlik;
- grammatik konstruktsiyalarni to‘g‘ri qo‘llash;
- yozma nutq elementlarining shakllanish darajasi (katta yosh guruhlarida) aniqlanadi.

Bu yo‘nalish artikulyatsion buzilishlar, fonetik-fonematik yetishmovchilik va dizartrik belgilarni aniqlashda muhimdir.

2. Funksional (kommunikativ) baholash. Funksional baholash nutqning amaliy qo‘llanish darajasini o‘rganadi. Bunda:

- dialogik nutq (savol-javob, suhbatga kirishish);
- monologik nutq (voqeani izchil hikoya qilish);
- nutqning mantiqiyliigi va izchilligi;
- ijtimoiy muloqotdagi faol ishtiroki aniqlanadi.

Mazkur baholash turlari bolaning kommunikativ kompetensiyasi va ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash imkonini beradi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bola nutqining rivojlanishini monitoring qilish muhim ahamiyatga ega.

Monitoring — nutq rivojlanishini ma’lum vaqt oralig‘ida muntazam kuzatish, qayd etish va tahlil qilish jarayonidir. Samarali monitoring quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Boshlang'ich diagnostika – mavjud nutq darajasini aniqlash;
2. Korreksion-rivojlantiruvchi bosqich – maqsadli mashg'ulotlar tashkil etish;
3. Oraliq nazorat – dinamik o'zgarishlarni baholash;
4. Yakuniy tahlil – samaradorlikni aniqlash.

Ushbu model doirasida: haftasiga 3 marotaba 20–30 daqiqalik mashg'ulotlar o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mashg'ulotlarda;

- artikulyatsion gimnastika;
- senso-motor mashqlar;
- logopedik korreksion usullar;
- dialogik va monologik nutqni rivojlantirish topshiriqlari qo'llaniladi.

Natijalar boshlang'ich ko'rsatkichlar bilan solishtirilib, rivojlanish dinamikasi aniqlanadi. Tizimli mashg'ulotlar natijasida talaffuz aniqligi va nutq ravonligida ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda multimedia vositalari nutq rivojini rag'batlantirishda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv taqdimotlar, audio-video materiallar, raqamli o'yinlar bolalarda nutqiy faollikni oshiradi. Shuningdek, topishmoqlar, tez aytishlar, qo'shiqlar va dramatizatsiya elementlari dialogik va monologik nutqni tabiiy ravishda rivojlantiradi. Motivatsion rag'batlantirish esa bolalarning mashg'ulotlarga qiziqishini mustahkamlaydi. Tizimli baholash va monitoring natijasida:

- nutq nuqsonlari erta aniqlanadi;
- individual rivojlantirish dasturlari ishlab chiqiladi;
- pedagog va logoped hamkorligi kuchayadi;
- maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasi oshadi.

Xulosa.

Monitoring asosida olib borilgan korreksion ishlar nutqning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarida sezilarli ijobiy dinamikani ta'minlaydi. Bolalar nutqini baholash va monitoring qilish uzluksiz, ilmiy asoslangan va tizimli jarayon bo'lib, u nutqiy rivojlanishni samarali boshqarish imkonini beradi. Strukturaviy va funksional baholashning uyg'unligi hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish nutq rivojlanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur yondashuv maktabgacha ta'lim sifatini takomillashtirish va bolalarning kelajakdagi akademik muvaffaqiyatlari uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. F. Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N. Qayumova, M. A'zamova "Maktabgacha pedagogika" darslik "Tafakkur" nashriyoti Toshkent - 2019
2. M.Q.Jabborova "Nutq o'stirish uslubiyoti" darslik FDU "Nusxa ko'paytirish bo'limi" Farg'ona 2025.
3. Ушакова О.С. Развитие речи дошкольников. — М.: Издательство Института Психотерапии, 2001. — 256 с.
4. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста. — М.: Айрис-пресс, 2004. — 224 с.
5. Jabborova M.Q. Maktabgacha ta'limda nutq rivojlantirish metodikasi. — Farg'ona: FarDU nashriyoti, 2020. — 180 b.
6. Волкова Л.С. Логопедия: учебник для студентов дефектологических факультетов педагогических высших учебных заведений. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004. — 704 с.